



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 11 | pp. 367-378 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### IQTISODIY MUTANOSIBLIKNING SHAKLLARI VA TURLARI



**Murtazayev Isabek Bazarbayevich**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Iqtisodiyot fakulteti, Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida dotsent v.b., i.f.f.d. (PhD).

[Isabekmurtazayev72@gmail.com](mailto:Isabekmurtazayev72@gmail.com)

ORCID: 0009-0005-9012-1918

**Annotatsiya:** Iqtisodiy mutanosiblik ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ma'lum barqarorlik doirasida bo'lishi lozim. Agar ushbu doiradan chiqib ketsa, u buziladi va buning oqibatida nomutanosiblik vujudga keladi. Ammo, iqtisodiy mutanosiblik uzoq vaqt barqaror bo'la olmaydi. Demak, mutanosiblik nisbiy bo'lib, umumiy mutanosiblikka ma'lum darajadagi nomutanosiblik orqali erishiladi. Chunki, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar ishlab chiqarish hajmiga qaraganda ustuvor o'sish xususiyatiga ega. Shu bilan bog'liq holda, fan-texnika taraqqiyoti tufayli yangi ishlab chiqarish tarmoqlari va sohalari vujudga kelib, eskilari esa doimo barham topib turadi. Ushbu maqolada, iqtisodiyot yangi bozor va texnologik taraqqiyotga tez moslasha oladigan va nomutanosiblik yuz berganda, mazkur vaziyatdan qulay holatda chiqib keta oladigan darajada bo'lganda yangi iqtisodiy mutanosiblikka erisha olishi to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy-iqtisodiy mutanosiblik, ishlab chiqarish resurslari, bozor mexanizmi, iqtisodiy jarayon, makroiqtisodiy barqarorlik, talab va taklif, iqtisodiy o'sish, hududlararo nomutanosiblik, iqtisodiy regulyator, mehnat taqsimoti, zamonaviy bozor iqtisodiyoti.

**Abstract:** Economic balance should be within a certain stability in socio-economic life. If it goes beyond this framework, it is violated, and as a result, imbalance occurs. However, economic balance cannot be stable for a long time. Therefore, balance is relative, and general balance is achieved through a certain level of imbalance. Because socio-economic needs have a priority growth characteristic over production volumes. In this regard, due to scientific and technological progress, new production sectors and industries are emerging, and old ones are constantly disappearing. This article argues that the economy can achieve a new economic balance when it is able to quickly adapt to new markets and technological developments and, when imbalance occurs, to get out of this situation in a comfortable way.

**Keywords:** socio-economic balance, productive resources, market mechanism, economic process, macroeconomic stability, supply and demand, economic growth, interregional imbalances, economic regulator, division of labor, modern market economy.

**Аннотация:** Экономическое равновесие должно находиться в рамках

определенной стабильности в социально-экономической жизни. Если он выйдет за пределы этого диапазона, он будет нарушен и, как следствие, возникнет дисбаланс. Однако экономический баланс не может быть стабильным надолго. Следовательно, пропорция относительна, и общая пропорция достигается за счет некоторой степени неравенства. Потому что социально-экономические потребности имеют приоритетный рост по сравнению с объёмами производства. В связи с этим благодаря научно-техническому прогрессу создаются новые производственные отрасли и производства, а старые постоянно исчезают. В данной статье думается, что экономика может достичь нового экономического баланса тогда, когда она сможет быстро адаптироваться к новому рынку и технологическому развитию, а при возникновении дисбаланса она может выйти из этой ситуации в выгодном положении.

**Ключевые слова:** социально-экономическое равновесие, производственные ресурсы, рыночный механизм, экономический процесс, макроэкономическая стабильность, спрос и предложение, экономический рост, межрегиональное неравенство, экономический регулятор, разделение труда, современная рыночная экономика.

#### KIRISH

Iqtisodiy mutanosiblik shakllari har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatiga, rivojlanish darajasiga, hududlarining iqtisodiy salohiyatiga, davlatning qanday siyosat yuritishiga bog'liq bo'lib, ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishning mutanosiblik mexanizmi mavjud ishlab chiqarish usuliga xos bo'lgan ichki ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni o'zida mujassam etgan holda shakllanadi.

Mutanosiblik namoyon bo'lishining turli shakllari sharoitida ham uning umumiy mazmuni, ya'ni jamiyat ehtiyojlari uchun ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlar va xizmatlar miqdorining ijtimoiy ehtiyojlar miqdoriga mos kelish darajasi hamda iqtisodiy nisbatlarning muayyan maqsad yulida tartiblashgan holati hisoblanadi. Umumiy abstrakt tushunchalar qatoriga kiradigan mutanosiblik va unga xos bo'lgan barcha aniq shakllar harakati hech qachon tugallangan tadqiqot sifatida qabul qilinmasligi lozim.

Ijtimoiy-iqtisodiy mutanosibliklar milliy iqtisodiyotning ob'ektiv shart-sharoitlari, jamiyatning oldiga qo'ygan maqsadiga qarab turli daraja va shakllarda bo'ladi va o'zgarib boradi. Mutanosiblik har qanday jamiyatda inson faoliyatiga xos bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish o'rtasidagi muvozanatni saqlash uchun resurslarni ishlab chiqarish bug'inlariga oqilona taqsimlashni o'zida mujassamlashtiradi.

#### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy jarayonlar o'ziga xos murakkab va turli xil bo'lganligi uchun mutanosiblik hamda ularni ifodalovchi tomonlar o'rtasidagi nisbatlarning qirralari ham ko'p va turli-tumandir. Iqtisodiy adabiyotlarda mutanosiblikning xilma-xil turlari va shakllari talqin qilinadi. Aynan, O'zbekistonlik olimlar Sh.Sh.Shodmonov va U.V.G'ofurovlar boshqa olimlarning fikrlaridan kelib chiqib umumlashtirgan holda iqtisodiy mutanosiblikka nisbatan o'zlarining quyidagi tavsiflarini shakllantiradilar.

1. Umumiy iqtisodiy tavsifdagi mutanosibliklar. 2. Milliy iqtisodiyotning muvozanatini ta'minlashda tarmoqlar o'rtasidagi mutanosibliklar. 3. Tarmoq ichidagi

mutanosibliklar. 4. Hududiy (territorial) mutanosibliklar. 5. Davlatlararo iqtisodiy mutanosiblik larni misol qilib ko'rsatadilar.

Iqtisodiyotda mutanosiblik murakkab va tez o'zgarib turuvchi nisbatlar bo'lishini hamda ular o'rtasida ma'lum moslik bo'lishini taqozo etadi. Ularni guruxlashda turlicha nuqtai nazarlar mavjud. Masalan, D.Tojiboyeva iqtisodiy mutanosiblikning quyidagi guruxlarini ajratib ko'rsatadi:

- ishlab chiqarish hajmi va assortimenti bo'yicha mutanosiblik;
- regional hududiy mutanosiblik;
- takror ishlab chiqarishdagi mutanosiblik[1].

Shunday ekan, birinchi gurux bo'yicha xulosa, ishlab chiqarish hajmi bilan assortimenti o'rtasidagi mutanosiblik mavjud bo'lishi haqiqatdan yiroq. Vaholangki, mahsulot assortimenti bor, lekin ishlab chiqarish assortimenti yo'q. Chunonchi, uning o'rniga boshqa mutanosiblik nisbatlari tug'risida fikr yuritish foydadan holi emas. Bundan ko'rinib turibdiki, mazkur guruxlarning takror ishlab chiqarishdagi mutanosibligi bo'yicha mazmuni to'liq ochib berilmagan.

#### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola mavzusini yoritishda quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

Nazariy tahlil: Mavjud nazariyalarni o'rganish; iqtisodiy mutanosiblikni tushuntiruvchi iqtisodiy nazariyalarni tahlil qilish.

Iqtisodiy modellar tahlili: Asosiy nazariy modellarni o'rganish va ularning mutanosibligini qanday tasvirlashini anglash.

Qiyosiy tahlil: Har xil davlatlar yoki hududlar iqtisodiyotida mutanosiblikning shakllari va turlarini qiyosiy o'rganish.

Tarixiy qiyosiy usul: Iqtisodiy mutanosiblikning vaqt mobaynidagi o'zgarishlarini tahlil qilish.


Iqtisodiy-statistik usullar: Ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish; mutanosiblik darajasini o'lchash uchun statistik ma'lumotlardan foydalanish.

Taxmin va prognozlar: Turli iqtisodiy holatlar uchun ehtimoliy natijalarni baholash.

Tizimli tahlil: Mutanosiblikning amaldagi shakllarini o'rganish uchun mavjud tadqiqotlar va tajribalar natijalaridan foydalanish; iqtisodiy indikatorlar orqali mutanosiblik darajasini aniqlash.

#### TAHLIL VA NATIJALAR

Mutanosiblik mexanizmining amal qilish va namoyon bo'lish shakllarining xususiyatlari turli omillarga bog'liqdir. Masalan, bularga ijtimoiy mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish va ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, texnik-tashkiliy munosabatlar tizimining ichki mohiyati, muvozanatlilik, rejalilik, marketing hamda oqilona tashkil etilgan iqtisodiy nisbatlarni ajratib ko'rsatish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Iqtisodiy mutanosiblikning namoyon bo'lish shakllari<sup>1</sup>.

Chunonchi, feodalizm davrida natural xo'jalik shaklida mavjud resurslar ob'ektiv ravishda rivojlanayotgan mehnat taqsimotiga asosan bevosita moddiy-ashyoviy ko'rinishda taqsimlanib, ma'lum nisbatlar mosligini tashkil qiladi. Bu taqsimot xo'jalik a'zolarining yosh tarkibi, mavsumiy mehnat sharoiti, hamda mahsulotning xo'jalik a'zolari o'rtasida taqsimlanishi nisbatini belgilaydi. Bu davrda ishlab chiqarish asosan chorvachilik va dehqonchilikka bo'lingan, hunarmandchilik ham alohida sohaga aylangan. Asosiy xo'jalik mutanosibliklari ana shu sohalar o'rtasida shakllandi. Buning natijasida natural xo'jaliklar, jamoalar o'rtasida ayirboshlashni zarur qilib qo'yadi va savdo alohida soha bo'lib ajralib chiqadi. Tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash rivojlana boshlagach, sohalar, tarmoqlar bo'yicha nisbatlar qiymat shaklida ham namoyon bo'la boshladi.

Manufakturadan mashinali ishlab chiqarishga o'tilgan xo'jalik sub'ektlari o'rtasida qat'iy moddiy-ashyoviy va qiymat bo'yicha miqdoriy bog'liqlik vujudga keladi. Bir tomondan, mehnat taqsimoti chuqurlashib, turli soha va tarmoqlar ko'payib, ular o'rtasida moddiy-ashyoviy mutanosibligi bo'lish zaruriyati paydo bo'ladi. Ikkinchi tomondan, ushbu mutanosibliklar asosida almashuv qiymati nisbatlari ham vujudga keladi.

Iqtisodiyotning rivojlanishi tarixi shuni ko'rsatadiki, resurslardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy harakatlar mutanosiblikning aniq shakllarini o'z ichiga olgan turli yo'llar, usullar bilan amalga oshirilgan va bu holatlar uning har bir davriga xos bo'lgan namoyon bo'lish shakllari bo'linshni taqozo etadi.

Bugungi kunda, jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bozor munosabatlari qanchalik rivojlana borgani sari uning ijtimoiy yo'naltirishga, ishlab chiqarishni integratsiyalashuviga zarurat shunchalik kuchayib boradi. Shu bilan birga, iqtisodiyotga davlat aralashib, uni tartibga solishning davlat mexanizmi ham vujudga keladi. Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlari uyg'unlashib boradi. Endilikda davlat iqtisodiy muvozanat va mutanosiblikning shakllanishiga faol ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan iqtisodiy mutanosiblik davlatning iqtisodiy strategiyasi va siyosati sharoitida, uzoq muddatli rejalashtirish ta'sirida rivojlanib boradi. Agar bunday davlat siyosati iqtisodiy mutanosibliklarning shakllanishiga bozor munosabatlari va qonunlariga asoslanmasdan, sub'ektiv yondashuvlar asosida ta'sir ko'rsatsa, mamlakatda

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tuzildi.

nomutanosiblik vujudga kelib, iqtisodiy tangliklar yuz berishi mumkin. Faqat bozor munosabatlari va qonunlarini inobatga olib, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanib, tarkibiy o'zgarishlar siyosati yuritilganda, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan iqtisodiy nisbatlar mutanosibligi shakllanadi.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda mutanosiblikka hatto tasodifiy omillar ham ta'sir qilishi, shuning uchun ham mutanosiblikning milliy iqtisodiyotda tendentsiya tarzida yuz berishi ta'kidlanadi [1]. Demak, iqtisodiyotning turli tomonlari nisbatlarining mosligi, muvofiqligi nisbiy bo'ladi. Bunga sabab sifatida iqtisodiy mutanosibliklarning aniq amalga oshmasligi hamda bozor munosabatlari sharoitida ularga tasodifiy hollar va jarayonlarning ta'siri kuchliligi bilan izohlanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida va unga o'tish davrida xilma-xil mulk shakllari mavjud bo'lib, ularda xo'jalik yuritish samaradorligi ham turlicha bo'ladi. Iqtisodiyotda xilma-xil mulkchilikka asoslangan turli ijtimoiy-iqtisodiy ukladlar nisbatlarining mosligi, mutanosibligi shakllanadi.

Iqtisodiy mutanosiblikning shakllanishi, avvalambor, bozor mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Uning muhim dastagi erkin narx dinamikasining o'zgarib turishi hisoblanadi. Narx iqtisodiy regulyator vazifasini bajarib, qaysi tarmoq yoki mahsulot turini ishlab chiqarish foydali ekanligini ko'rsatadi. Foydalilik darajasi past bo'lgan, ya'ni mahsulotlari narxi pasayib ketgan tarmoq va sohalardan kapital, ishchi kuchi mahsulotlari narxi yuqori bo'lgan tarmoqlarga ko'chib o'tadi. Bunday holatlarda bozor mexanizmining yana bir muhim dastagi raqobat kurashi, ayniqsa, tarmoqlararo raqobat nisbatlarining o'zgarishini tartibga soladi. Tarmoqlararo raqobat asosida iqtisodiy resurslar jamiyat va bozor talablariga muvofiq taqsimlanadi [2].

Aslida, mohiyatiga ko'ra mutanosiblik iqtisodiy muvozanat qonuni talablari asosida amal qilsa-da, u bozor va nobozor munosabatlarini tartibga solishni taqozo qiluvchi mexanizmga aylanadi.

Ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda "...muvozanatlilik bilan mutanosiblik aynan bir mazmunni anglatadi, ya'ni, muvozanatlilik o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra mutanosiblikdan boshqa narsa emas, aynan bir narsadir" [3] - degan fikrlarni uchratish mumkin.

Demak, tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, "muvozanatlilik" tushunchasi iqtisodiy mutanosiblikning bir shakli bo'lib, o'zaro o'zviy bog'langan iqtisodiy jarayon va hodisalarning miqdoriy jihatdan o'zaro tengligini anglatadi. Iqtisodiyot mutanosibligi va muvozanatliligi ular bir - biridan sifat va miqdor jihatlari bilan ajralib turadi. Masalan, iste'mol bilan jamg'arma o'rtasidagi bog'lanishni oladigan bo'lsak, unda ular ikkalasining o'zgarishi jamiyat tomonidan oldindan belgilangan ko'rsatkichlarni o'zida mujassamlashtirgan mutanosiblik tushunchasi bilan ifodalansa, muvozanatlilik esa, iqtisodiy tizimning qismlardagi harakat, jarayon va bog'lanshildagi ko'rsatkichlarning teng hajm va teng miqdor o'zgarishlarini ifodalaydi. Iqtisodiy jarayon va hodisalarning muvozanatlilik shaklidagi harakati iqtisodiyotning jadal rivojlanishida ob'ektiv zaruriyat bo'lishi mumkin. Masalan, jamiyat miqyosida ma'lum bir maqsadlarga erishish uchun mehnat umumdorligining o'sishi bilan ish haqining o'sishi teng so'r'atlarda, ya'ni muvozanatlangan hajmda o'sishni taqozo etishi mutanosibliklarda ham ma'lum o'zgarishlarga olib keladi.

Mutanosiblikning muhim ko'rinish shakllaridan biri rejallilikdir. Zamonaviy bozor iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri rejali ravishda hamkorlikning yo'lga qo'yilgani va uning orqaga qaytarib bo'lmas jarayonga aylanganidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejallilik bozor stixiyasini bartaraf etishga xizmat qiladi. Demak, rejallilik zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishining asosiy sharti bo'lib, rejalashtirish orqali amalga oshiriladi. Chunki, hozirgi zamon ishlab chiqarishni g'oyat murakkab aloqalar tizimida, chuqur mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning yaxlitligi va to'planuvi sharoitida targ'ib etmoqda. Hozirgi sharoitda ishlab chiqarish va sotish jarayonini hamkorlar bilan oldindan kelishmasdan, rejalashtirmasdan turib tashkil qilish mumkin emas. Chunonchi, bugungi kunda, Amerika iqtisodiyotining 80 foiz kichik va o'rta biznes korxonalari o'zlari ishlab chiqaradigan tovarlarni qayerga, kimga va qanday shartlarda sotishi oldindan bilishi fikrimizning isbotidir.

Shunday ekan, davlatning iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmi bilan jamiyat iqtisodiy hayotini rejalashtirish butunlay boshqa-boshqa iqtisodiy voqelikdir. Chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat o'zining makroiqtisodiy siyosati bilan iqtisodiy jarayonlarning umumiy yo'nalishiga ta'sir qiladi, lekin, yalpi rejalashtirish vazifasini bajarmaydi.

Rejalashtirish - rejallilikni amalga oshirish mexanizmi sifatida shakllanib, barcha bozor sub'ektlari tomonidan mustaqil tashkil etiladigan iqtisodiy jarayondir. Sababi, hozirgi davr mehnat taqsimotining tez chuqurlashuvi va murakkablashuvi, ishlab chiqarishning yaxlitligi va integratsiyalashuvi, fan va texnika taraqqiyotining jadallik bilan rivojlanishi har bir xo'jalik sub'ekti o'z faoliyatini rejasiz tashkil etishini tasavvurga sig'dirish qiyin. Chunki, har bir korxonada boshqa bir korxonada bilan albatta hamkorlik qiladi va bu hamkorlik oldindan ishlab chiqilgan, kelishilgan reja asosida to'ziladigan shartnomalar shaklida vujudga keladi.

Hozirgi paytda, iqtisodiy mutanosiblik xo'jalik tizimining boshqa jabhalariga kiruvchi har xil shakllari ham mavjud. Ijtimoiy takror ishlab chiqarishning barcha fazalaridagi bog'lanishlar, ehtiyojlar, harakatning shakllanishi va rivojlanish jarayoni mutanosiblikni o'rnatishning muhim sharti hisoblanadi.

Aralash iqtisodiyot ko'rinishidagi bozor iqtisodiyoti mulkchilik va unga mos xo'jalik yuritishda zarur mutanosiblikni ta'minlashning universal va hal qiluvchi vositasi hisoblanadi. Lekin, bozor mexanizmining universalligi manfaatlarni muvofiqlashtirish, ishlab chiqarishni tashkil qilish bosqichida emas, balki, ishlab chiqarish natijasi moddiylashgan shaklga kirgandan, ya'ni, bozordagi talab bilan taklif to'qnashuvi sodir bo'lgandan keyin amalga oshiriladi. Bozor kerakli mutanosiblikni ta'minlashda muhim rol uynasa-da, ayni paytda tovar ishlab chiqaruvchilarning bir qismini inqirozga yuz to'tish xavfini keltirib chiqaradi.

Jahon iqtisodiyoti fan va texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi va boshqa ko'plab sabablarga ko'ra aralash iqtisodiyotga aylanib bormoqda, bu esa, iqtisodiyotni rejallilik asosida tashkil etishni taqozo etmoqda hamda uning qator elementlarini vujudga keltirmoqda. Buning isboti sifatida keyingi yillarda keng rivojlanayotgan va mutanosiblikning mustaqil bir shakli sifatida yuzaga chiqayotgan marketingni misol keltirish mumkin.

Hozirgi sharoitda har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt marketing tizimini yaxshi

yulga qo'ygan holdagina ijobiy natijalarga erisha oladi va o'z faoliyatini biznes rejalar orqali oldindan rejalashtiradi. Demak, taraqqiy etgan mamlakatlarda xo'jaliklar o'z iqtisodiy faoliyatini rejalashtirish va shu asosda iqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash bo'yicha katta yutuqlarga erishgan. To'g'ri, jamiyat miqyosida davlat tomonidan iqtisodiyotni rejalashtirib, uning bajarilishi ta'minlanmasa-da, lekin, davlat soliq, boj-tarif, moliya-kredit siyosati asosida, parametrlarni rejalashtirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shunga muvofiq ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi, mutanosiblik ma'lum darajada rejalashtirish mexanizmi bilan tartibga solinadi.

Bozor munosabatlari sharoitida tavakkalchilikning yuqoriligi, tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan talabni o'rganish, prognoz qilish, faoliyatni boshqa tovar ishlab chiqaruvchilar va raqobatchilar faoliyati bilan muvofiqlashtirish zarurati paydo bo'ladi. Bu holatlar davlat tomonidan iqtisodiyotni istiqbollash va muvofiqlashtirish tadbirlarini o'tkazishni taqozo qilib qo'yadi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish, mehnat taqsimoti va mehnat kooperatsiyasi milliy iqtisodiyotning turli tarkibiy bug'inlari va yalpi ichki mahsulotning to'rtli ko'rinishlari o'rtasida ma'lum ob'ektiv bog'liqlik va aloqa o'rnatilishini taqozo etadi. Chunki, ular o'rtasidagi nomutanosiblik keyinchalik aniqlanib, uni bartaraf etish choralari amalga oshirilsa, ko'riladigan talofat shunchalik kam bo'ladi.

Mutanosiblikning paydo bo'lish shakllaridan biri iqtisodiy nisbatlar bo'lib, u har qanday faoliyatning miqdoriy asosi hisoblanadi. Iqtisodiy nisbatlar oqilona tashkil etilganda tegishli mutanosibliklarga erishiladi.

Iqtisodiy jarayonlar g'oyat murakkab va ko'p qirrali bo'lishi sababli mutanosiblik hamda ularni ifodalovchi tomonlar o'rtasidagi nisbatlarning turlari ham ko'p va xilma-xildir. Iqtisodiy adabiyotlarda mutanosiblikning xilma-xil turlari va shakllari tavsiflanadi. Jumladan, O'zbekistonlik olimlar Sh.Sh.Shodmonov va U.V.G'ofurovlar boshqa olimlarning fikrlaridan kelib chiqib umumlashtirgan holda iqtisodiy mutanosiblikni quyidagi turlarga ajratadi va tavsiflaydi.

1. Umumiqtisodiy tavsifdagi mutanosibliklar. Bunga milliy daromaddagi tarkibiy qismlar: ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi; iste'mol fondi va jamg'arish fondi o'rtasidagi; iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar massasi bilan pul massasi o'rtasidagi; aholining daromadlari bilan xarajatlari o'rtasidagi mutanosibliklarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

a) ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi mutanosiblik talab va taklifning bog'liqligidan kelib chiqadi. Agar ishlab chiqarish hajmi aholining to'lov qobiliyati bilan belgilanadigan iste'mol darajasidan ortib ketsa, ortiqcha ishlab chiqarish krizisi yuz beradi. Bunday holda ko'plab tovarlar sotilmasdan, omborlarda to'planib qoladi. Ularni xarid qilishga esa aholida pul mablag'lari yetarli bo'lmaydi. Natijada ishlab chiqarish jarayonlari to'xtab qoladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun ortiqcha tovar va xizmatlardan qutilish chora-tadbirlari ko'riladi. Umuman, ushbu iqtisodiy inqirozdan chiqish uchun ishlab chiqarishning moddiy bazasi yangilanadi. Ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiya kiritiladi. Mahsulotlar va xizmatlarning assortimenti yangilanadi.


b) iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi mutanosiblikda yalpi ichki mahsulotning katta

qismi pirovard iste'mol uchun ishlatilsa, jamg'arish umuman bo'lmasa, yoki juda kam miqdorda bo'lsa, ma'lum qisqa davr mobaynida aholining turmush darajasi yaxshilanadi, ularning real daromadlari o'sadi. Ammo bu davrda jamg'arish miqdori oz bo'lgani uchun iqtisodiyotga kiritiladigan kapital mablag'lar miqdori ham oz bo'ladi. Oqibatda asosiy fondlar o'z vaqtida yangilanmaydi, yangi ishchi o'rinlari yaratilmaydi. Buning natijasida yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning o'sish sur'ati pasayadi, hatto, ishlab chiqarish hajmi ilgari davrga nisbatan kamayib, aholining real daromadlari, turmush darajasi pasayib ketadi.

в) ишлаб чиқарилган товар ва хизматлар массаси билан муомаладаги пул массаси ўртасидаги муносиблик ҳам муҳим ҳисобланиб, агар у бузилса, муомаладаги пул массаси иқтисодиётдаги товар ва хизматлар массасидан ортиб кетиб, пул инфляцияси кучаяди, ёки товар ва хизматлар массаси пул массасига нисбатан ортиб кетса, пул етишмовчилиги вужудга келиб, хўжалик субъектлари ўртасидаги айирбошлаш муносабатларида кийинчилик юз беради. Муаммони ечиш мақсадида, товар-пул муносабатлари ўрнига бартер айирбошлаш усулини ҳам қўллаш мумкин. Бу усулни ҳаддан зиёд қўллаш ҳам иқтисодий ўсишнинг пасайишига сабаб бўлади.

г) aholi daromadlari va iste'mol xarajatlari, o'rtasidagi mutanosiblikda, aholi daromadlarining bir qismi iste'mol xarajatlariga sarflanadi. Qolgan qismi to'planadi, ya'ni jamg'ariladi. Jamg'arilgan aholi daromadining bir qismi banklardagi omonatlarga qo'yiladi, qimmatli qog'ozlar sotib olishga yoki kichik biznesni tashkil etishga yo'naltiriladi, ya'ni investitsiyaga aylanadi. Demak, aholi daromadlari, iste'mol sarf-xarajatlari, jamg'armalari hamda uning investitsiyaga aylangan qismlari o'rtasida nisbatlar vujudga keladi. Ushbu nisbatlar o'rtasida ma'lum mutanosiblik bo'lishi kerak. Ana shundagina oila, uy xo'jaligi samarali yuritiladi.

Umumiqtisodiy mutanosibliklar ham, bozor mexanizmi ham, davlatning makroiqtisodiy siyosati asosida vujudga keladi va ularning barqarorligi ta'minlanadi (2-rasm).



2-rasm. Umumiqtisodiy mutanosibliklarning tarkibi<sup>2</sup>

<sup>2</sup> Muallif tomonidan tuzildi.



2. Milliy iqtisodiyotning muvozanatini ta'minlashda tarmoqlar o'rtasidagi mutanosibliklar alohida o'rin tutadi. Milliy iqtisodiyot juda ko'p tarmoq va sohalardan iborat bo'lib, ularning rivojlanishi bir-birini taqozo etadi. Bir tarmoqda yaratilgan mahsulot boshqa tarmoqda yoki sohada xom ashyo, butlovchi qismlar hamda mehnat qurollari sifatida ishlatiladi. Masalan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari sanoatda qayta ishlanib, iste'molga tayyor mahsulotga aylantiriladi. O'z navbatida sanoat mahsulotlari traktor, mashina va mexanizmlar, yoqilg'i - moylash materiallari, mineral o'g'itlar va hokazolar xomashyo sifatida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda ishlatiladi. Bunday holat, ushbu tarmoqlarning bir-birlariga uzviy ravishda bog'liqlikda rivojlanishini taqozo etadi. Tarmoqlar o'rtasidagi mutanosibliklarga sanoat bilan qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o'rtasidagi mutanosibliklar ham misol bo'la oladi.

3. Tarmoq ichidagi mutanosibliklar alohida olingan bir tarmoq tarkibidagi turli ishlab chiqarishlar va sohalar o'rtasidagi nisbatlarning mosligi, muvofiqligini ifodalaydi. Masalan, qishloq xo'jaligida dexkonchilik bilan chorvachilik o'rtasidagi nisbatlarning o'zaro mosligi. Dexkonchilikda esa turli qishloq xo'jaligi mahsulotlari, jumladan, almashlab ekiladigan ekinlar o'rtasidagi moslik, yoki, chorvachilikning sut va go'sht yetishtirish sohalari o'rtasida nisbatlarning o'zaro muvofiqligi tarmoq ichidagi mutanosiblikni o'zida aks ettiradi. Sanoatda esa ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlari, qazib olish va qayta ishlash, ya'ni undiruvchi tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlarning mosligi ham ushbu mutanosiblikka misol bo'ladi.

4. Hududiy (territorial) mutanosibliklar. Iqtisodiy rivojlanish mamlakat ayrim hududlari o'rtasidagi bog'liqlikni ham taqozo qiladi. Umuman olganda hududlar o'rtasidagi mutanosibliklarning mamlakat iqtisodiy rivojidadagi roli to'liq gavdalanmaydi. Lekin, alohida hududiy bo'linmalar (viloyat, tuman, shahar va boshqa hududiy birliklar) ning bir-biriga iqtisodiy va tashkiliy jihatdan bog'liqligi, ixtisoslashish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va kommunikatsiya nuqtai-nazaridan qaralsa, bu bog'liqlikning ahamiyati yaqqol ko'rinadi.


Hududlararo nomutanosiblik vujudga kelsa, rivojlangan hududlar, asosan, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga, rivojlanmagan hududlar esa ular uchun xom ashyo, butlovchi mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashib qoladi. Buning oqibatida ular o'rtasida mahsulot, xizmat hamda faoliyat almashinuvida noekvivalent ayirboshlash sodir bo'ladi. Bir hudud boshqasiga iqtisodiy jihatdan qaram bo'lib qoladi. Rivojlangan hududlarda aholining turmush darajasi yuqori bo'ladi. Iqtisodiy jihatdan unchalik rivojlanmagan hududdar aholisining turmush darajasi pastroq bo'ladi. Shu boisdan bu hududlardan aholining rivojlangan hududlarga ko'chishi kuchayadi.

5. Davlatlararo iqtisodiy mutanosibliklarning asosida xalqaro mehnat taqsimoti orqali milliy iqtisodiyotlarning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi yotadi. Barcha mamlakatlar xalqaro mehnat taqsimotiga asosan, ma'lum mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'ladi. Shuningdek, o'z iste'molini qondirish uchun ayrim mahsulotlarni chet mamlakatlardan sotib olishi davlat uchun ham foydali hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotlar o'rtasidagi aloqadorlik, qanchalik keng bo'lsa, ular o'rtasida mutanosib bog'liqlik shunchalik yuqori bo'lishi tabiiy. Shuningdek, har bir mamlakatning tashqi savdo va to'lov nisbati undagi umumiy iqtisodiy mutanosiblik bilan bog'liq holda

kechadi. Davlatlararo mutanosiblik mamlakat milliy iqtisodiyotida firma, uy xo'jaligi, davlat va chet el sektorlari o'rtasidagi moslik, aloqadorlikka ham ta'sir ko'rsatadi.

Davlatlararo mutanosiblik mamlakat milliy iqtisodiyotining boshqa mutanosibliklariga ta'sir ko'rsatadi va ularning shakllanishiga, o'zgarishiga turtki beradi. Shuningdek, milliy iqtisodiyot mutanosibliklari mamlakatning jahon iqtisodiy tizimida qanday o'rin to'tishini, uning qanday mavqe egallashini hamda boshqa mamlakatlar bilan qanday nisbatga ega bo'lishini belgilab beradi [5] (3-rasm).



3-rasm. Iqtisodiy mutanosiblik turlari<sup>3</sup>.

Mamlakatning tashqi to'lov muvozanatining bo'zilishi noxush holatlarga olib kelishi mumkin. Agar mamlakat tashqi savdo va to'lov nisbati minus sal'doga ega bo'lsa, u holda mamlakatning boshqa mamlakatlarga qaramligi kuchayadi, qarzdorlik muammosi ham ortib boradi. Bu hol esa mamlakat ichida ijtimoiy to'lov qobiliyatining pasayishiga olib keladi.

#### XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rastadiki, iqtisodiy mutanosiblikning yuqorida sanab o'tilgan turlari qatoriga ijtimoiy-iqtisodiy, iqtisodiy-demografik hamda, iqtisodiy-ekologik mutanosibliklarni ham kiritish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy mutanosiblik, birinchi navbatda, aholi turmush darajasi va sifatini belgilovchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarining samaradorligini ifodalaydi. Bu tur samarali talab bilan hududiy iste'mol bozorining tovar va xizmatlar bilan ta'minlanligi, aholining o'sishi va uy-joy kompleksining rivojlanishi o'rtasidagi, uy-joy majmuasi va kommunal xizmat ko'rsatish majmuasi o'rtasidagi, mamlakatdagi aholining ijtimoiy holati va iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi mutanosiblik, hamda, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari nisbatlarini o'zida mujassam etadi.

Iqtisodiy-demografik mutanosiblik bu - demografik holat bilan iqtisodiy takror ishlab chiqarishning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi va migratsiya jarayonlarining xususiyatini belgilovchi iqtisodiy va demografik mutanosiblikdir. Bu mehnat

<sup>3</sup> Muallif tomonidan tuzildi.

resurslarining ko'payishi va nafaqaga chiqishi, mehnat resurslari hamda ish o'rinlari, shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy-ekologik mutanosiblik-mamlakatning tabiiy resurs imkoniyatlari bilan uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni tavsiflovchi iqtisodiy va ekologik mutanosiblikdir. Bunda, xomashyo salohiyati va undan ishlab chiqarishda foydalanish imkoniyatlari o'rtasidagi, ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan atrof-muhitni muhofaza qilish darajasi o'rtasidagi, tabiiy resurslardan foydalanish salohiyati va takror ishlab chiqarish imkoniyati o'rtasidagi munosabatlarda ifodalanadi.

Yuqorida qayd etilgan mutanosibliklarga erishish orqali milliy iqtisodiyotning mutanosib rivojlanishini ta'minlash ko'zda tutiladi, ya'ni ular orqali:

- mamlakatda mavjud bo'lgan iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish evaziga jamiyatning ehtiyojlarini qondirish;

- ishsizlikni bartaraf etish, ya'ni mehnatga layoqatli va ishlashni xohlaganlarni ish bilan ta'minlash;

- narx-navoning nisbiy mutanosibligiga erishish va shu orqali inflyatsiya darajasini pasaytirish;

- ishlab chiqarishni barqaror o'sib borishini saqlagan holda investitsiya jozibadorligini oshirish va muomaladagi pul massasiga nisbatan mutanosiblikni ta'minlash;

- eksport va importni muvozanatlashtirish asosida tashqi savdo balansining ijobiy sal'dosiga erishish.

Bunday iqtisodiy bosqichlarga nisbatan intilish va unga erishish siklik maqsad ekanligini anglatmaydi. Chunki doimiy ravishda mutlaq mutanosiblikka erishish mushkul, vaholangki, ular buzilib, qaytadan tiklanib va o'zgarib turishi natijasida iqtisodiy o'sish notekis davom etadi.

Umuman, xulosa qilib aytganda, biz yuqorida to'xtalib o'tgan iqtisodiy mutanosiblikning namoyon bo'lish shakllari va turlarini tadqiq etuvchi bilimlarni egallash va ularni hayotga tatbiq etish, kelajakda, mamlakat iqtisodiy mutanosibligini va barqaror muvozanatini ta'minlashga, inqirozlarning oldini olishga, bozor stixiyasini ma'lum darajada bartaraf etishga va ko'plab iqtisodiy yo'qotishlarning oldini olishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Тожибоева Д. Иқтисодиёт назарияси. Иккинчи китоб: Олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. -Т.: Шарқ, 2003, -142-бет.

2. Хамираев О.Х. Иқтисодий мувозанатнинг назарий асослари ва уни таъминлаш механизмлари И.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -Т.: 2004, 85-93-бетлар.

3. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономика: принципы, проблемы и политика: [рус.] = Economics: Principles, Problems, and Policies. -М.: Республика, 1992, -Т. 2. -С. 395.

4. Макроиқтисодий мутаносиблик ва уни таъминлаш жараёни. О.Т.Сатторкулов, А.Х.Шоев, Р.А.Обидов. -Молодой ученый. -2021, № 46 (388). -С. 387-395. -URL: <https://moluch.ru/archive/388/84845/>

5. Ўринов А.А. Мутаносиблик-барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашнинг муҳим омили. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -Т.: 2005, 159-бет.
6. Шадманов Э.Ш. Мамлакатни модернизациялаш жараёнида иқтисодиётни мувозанатли ва мутаносибли ривожлантиришнинг асосий йўналишлари. И.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. -Т.: 2011, 320-бет.
7. Самуэльсон Пол А., Нордхаус Вильям Д. Экономика. учебник, пер. с англ. -М.: «БИНОМ», «Лаборатория Базовых Знаний», 1999. -800 с.
8. Ясин Е.Г. Российская экономика. Учебник. -М.: Экономика. 2019, -540 с.
9. Монкретьен Антуан де. Мировая экономическая мысль. Сквозь призму веков. В 5 т. Т. 1. От зари цивилизации до капитализма. Отв. ред. Г. Г. Фетисов. -М.: 2004, С. 186-95.
10. Исломов А., Эгамов Э. Иқтисодий таълимотлар тарихи: олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма, -Т.: «Ўзбекистон», 2003, -216 б.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

